

JURNALISTNING ZIDDIYATLI VAZIYATLAR VAQTIDAGI FAOLIYATINING HUQUQI - AXLOQIY ASOSLARI

Saidov Firdavs Ibragimovich

O‘zDJTU, Axborot xizmati va jamoatchilik

bilan aloqalar kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotasiya. Ushbu maqolada jurnalistning ziddiyatli vaziyatlar vaqtidagi faoliyatining huquqi - axloqiy asoslari haqida so‘z boradi. Tahlillarni amalga oshirishda dastlab “etika” va “axloqiy norma” atamalarining mazmun mohiyati akademik lug‘atlar hamda tadqiqotchilar tasnifi yordamida ochib beriladi. Shuningdek, mazkur maqola mavzusi yuzasidan mahaliy va xorijlik olimlarning tadqiqot ishi natijalari kontent tahlil qilinib, mavjud muammolar xususida tegishli taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *OAV, jurnalist faoliyati, favqulotda holatlar, axloqiy normalar.*

Abstract. This article talks about the rights and moral foundations of the journalist's activity during emergency situations. In the course of the analysis, the meaning of the terms «ethics» and «moral norm» is first revealed with the help of academic dictionaries and researchers' classification. Also, the results of the research work of local and foreign scientists on the topic of this article are analyzed, and relevant suggestions and recommendations are given regarding the existing problems.

Key words: *mass media, journalistic activities, emergency situations, ethical norms.*

KIRISH

Aksilterror operatsiyalari sohasida ishlayotgan jurnalistlarning huquqiy maqomi masalasi, ayniqsa Yevropa Kengashining ommaviy axborot vositalari vakillari uchun ziddiyatli holatlarda xatti-harakatlar standartlarini belgilash tajribasini hisobga olgan holda alohida e‘tiborga loyiqdir. Misol uchun Rossiya Federatsiyasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida” gi qonunining 47-moddasi (keyingi o‘rinlarda “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi qonun) jurnalist tabiiy ofatlar, avariya va ofatlar, tartibsizliklar va ommaviy yig‘ilishlar sodir bo‘lgan alohida muhofaza qilinadigan joylarga tashrif buyurish huquqiga ega. Bundan tashqari, u miting va namoyishlarda qatnashishi mumkin. Bu, bir tomondan, eng ko‘p ziddiyatli ijtimoiy zonalar va vaziyatlarning ochiqligi uchun, ikkinchi tomondan, ekstremal xatti-harakatlar, xususan, xalqaro terrorizm, separatizm va boshqalarni ulug‘lash uchun

sharoit yaratadi. Bu voqeylikka nisbatan munosabatlarni ifodalashi mumkin. Bu esa ularni bir tomondan harakatini tartibga solishni taqazo qilsa ikkinchi tomondan teraktchilarning bosmini ommaga ta'sir qilmasligini tartibga solish uchun muhimdir. Shu bois ham so'nggi paytlarda xalqaro hamjamiyatni jurnalistlar uchun samolyotlarni olib qochish, garovga olish va xalqaro terrorizmning boshqa ko'rinishlarini yoritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga chaqiruvchi ovozlarga tobora ko'payib bormoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODLAR

Jamiyatda kechayotgan har bir voqea xususida xolis axborot berish OAVning birlamchi vazifasidir. Shu vazifani bajarar ekan gazeta va jurnal, radio va televideniye omma bilan hokimiyat o'rtasida o'ziga xos aloqa vositasi, oshkoralik ko'zgusi, haqiqat jarchisi hisoblanadi. Hozirgi tahlikali zamonda OAVda ko'proq favqulodda hodisalar haqidagi axborotlarni berish ommaviy tus olgan. Qayerdadir sunami bo'lgani, aviahalokat yuz bergani, poyezdlar to'qnashgani, etnik guruhlar, xalqlar orasida nizolar kelib chiqqani yoki terrorchilik harakati sodir etilgani haqidagi xabarlar uzatiladigan kundalik axborotlardan albatta o'rin oladi. Bunday axborotlar haqida gap ketar ekan, favqulodda vaziyatlarda jurnalistlarning ishtirok etishi masalasi kun tartibiga chiqadi[1]. Qaynoq nuqtalarda, harbiy harakatlar sodir bo'layotgan joylarda jurnalistlarning ishtirok etishi to'g'rimi? Ularning xavfsizligi kim tomondan kafolatlanadi? Jurnalistlarning ishtiroki voqealar rivojiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Bu savollar XX asr o'rtalaridan jahon jurnalistikasining dolzarb masalalaridan biri sifatida kun tartibidan o'rin olgan va u hozir ham o'zining dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Ikkinchi jahon urushidan keyin BMT jurnalistlarni himoya qilish yuzasidan qator takliflarni o'rta tashlagan edi. Bu takliflar orasida jurnalistlarni "qaynoq nuqta"larga jo'natish masalasi bo'yicha xalqaro tashkilotlar tuzish, jurnalistlarni ajratib ko'rsatadigan belgilarni yaratish, jurnalistlarning muayyan hisob-kitob bankini yaratish masalalari bor edi. Ammo BMTning bu takliflarga qator jurnalistikaga oid xalqaro tashkilotlar qarshi chiqishgan[2]. Ularning fikricha, bu harakatlar jurnalistlar faoliyatiga daxl qilish, axborot shaffofligiga putur yetkazish, "qaynoq nuqta"larda jurnalistlarning professional faoliyat olib borishlariga ishonmaslikka olib kelishi mumkin ekan. Shunga qaramay jurnalistlarga xalqaro gumanitar huquq – fuqaro shaxslarga kafolatlaydigan barcha himoya me'yorlari tadbiq etiladi. Ya'ni, jurnalistlar asirga tushganda himoya qilinishi, odil sudlov kafolatlanishi, o'zi tegishli bo'lgan davlatga qaytarilishi kerak bo'ladi. Jeneva konvensiyasi 1- son Qo'shma qaydnomaning 79 – moddasi qurolli to'qnashuvlar paytida jurnalistlar himoyasini tartibga soladi. Unga muvofiq harbiy harakatlar sodir etilgan hududlarda bo'lgan

jurnalists fuqaro sifatida himoya qilinadi. Ikkinchidan, bunday vaziyatlarda jurnalistlar “fuqaro shaxs maqomiga to‘g‘ri kelmaydigan hech qanday xatti-harakatlar sodir etmasliklari kerak”li ta’kidlangan. Ya’ni, agar u harbiy harakatlarda ishtirok etsa, qo‘liga qurol olsa, xalqaro gumanitar huquq me’yorlariga ko‘ra, qurolli guruh a’zosiga aylanadi[3]. Bunday hududlarda faoliyat olib boradigan jurnalistlar xalqaro hujjat — tan olingan xalqaro jurnalistlar tashkilotlarida yoki xalqaro gumanitar tashkilotlar tomonidan beriladigan guvohnomalarga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qaynoq nuqtalardan axborot tayyorlashda O‘zbekiston OAV xodimlari ham qurolli to‘qnashuvlar sharoitida jamoatchilikka axborot yetkazib berishda amal qilishi mumkin bo‘lgan xalqaro gumanitar huquqlarni bilish lozimligini taqazo etmoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, milliy chegaralarimiz va davlat suverenitetini mustahkamlash uchun mamlakat hududining turli chegaralarida jangarilar bilan qurolli to‘qnashuvlar yuz berdi. Ana shunday voqealardan oxirgisi 2010-yil iyun oyida qo‘shni Qirg‘izistonning O‘sh va O‘zgan viloyatlarida bo‘lgan voqealardir. Unda ishtirok etish va bu voqealar bilan bog‘liq axborotlarni yoritish yuzasidan jahon jamoatchiligi O‘zbekiston OAVga nisbatan turli munosabatlar bildirib, qaysidir ma’noda axborot xurujini amalga oshirdilar. Shunga qaramay bunday sharoitda O‘zbekistonning o‘z pozitsiyasi bor. Nega O‘zbekiston OAV vositalari voqelikni kech, buning ustiga obyektiv yoritmadi, degan savolga Turkiyaning “Anadoli” axborot agentligining O‘rta Osiyo va shimoliy Afg‘oniston bo‘yicha maxsus muxbiri Baxtiyor Abdulkarimov shunday javob beradi: “Ikki qardosh, qondosh millat o‘rtasida sodir bo‘lgan bu to‘qnashuvlar yovuz kuchlar tomonidan maxsus uyushtirilgan. Maqsad aniq, u ham bo‘lsa ikki millat o‘rtasiga nifoq solib, shu hududda barqarorlikni izdan chiqarish va urush boshlash. O‘shda bo‘lgan xunrezliklarni o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim[4]. Bu voqealar qanday bo‘lsa, shundayligicha berilsa, axborotning kuchi ta’sirida O‘zbekistonning 28 million fuqarosi Qirg‘izistonda bo‘lardi va haqiqiy ma’nodagi qirg‘inbarot boshlanar edi. Men bu mavzuni yoritishda O‘zbekiston pozitsiyasini to‘g‘ri deb hisoblayman”. Bundan tashqari “qaynoq nuqta”larda, ayniqsa terrorchilik harakatlari sodir etilgan hududlarda jurnalistlarning ishtiroki ba’zan harbiy harakatlarni amalga oshirayotgan harbiylar uchun xalaqit berishi ham mumkin. Masalan, 2004-yilda Rossiyaning “Nord-Ost” klubining terrorchilar tomonidan qurshovga olinishi va aholini garovda ushlab turishi jarayonlarini yoritgan jurnalistlarning efirga uzatgan lavhalaridan terrorchilar ham o‘z pozitsiyalarini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘lganlar va harakatlarini o‘zgartirganlar. Shundan keyin Rossiya Federatsiyasining o‘sha paytdagi Prezidenti Vladimir Putin

harbiy harakatlar, jumladan terrorchilik harakatlari chog'ida jurnalistlarning ishtiroklariga nisbatan cheklovlar to'g'risida qaror qabul qildi.

Jurnalist favqulodda vaziyatlarni yoritishda nimalarga e'tibor qilishi kerak?

Etika jihatidan vazmin va mas'uliyatli bo'lish;

Ijtimoiy jihatdan mas'uliyatli bo'lish;

Faqat bitta hududdagina sodir bo'layotgan favqulodda hodisalar, holatlarni yoritish orqali shu hudud haqida noto'g'ri imidj shakllantirib qo'ymaslik. Ya'ni, voqea-hodisalarni yoritishda axborot muvozanatini buzmaslik kerak;

Shov-shuvli xabar bo'lishidan yoki vahima tarqatishdan o'zini tiyish;

Ishonchli, ilmiy asoslangan, haqqoniy va sinalgan manbalardan foydalanish;

Mazkur vaziyat tufayli aholi orasida xavotir uyg'onishiga sabab bo'ladigan holatlarga oydinlik kiritiladigan olimlar, tadqiqotchilar, jamoat salomatligi sohasi mutaxassislari, oliy o'quv yurtlari ishchi-xodimlari hamda boshqa bilim sohasi mutaxassislaridan iqtiboslar keltirish lozim[5].

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida" Qonunining 20-moddasiga muvofiq, terrorchilikka qarshi operatsiya o'tkazilayotgan hududda jurnalistlarning ishtiroki terrorchilikka qarshi operatsiyalar o'tkazish rahbarlari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi belgilangan. Unga muvofiq bunday harakatlar chog'ida jurnalistlar faqat huquqni muhofaza qilish organlari yoki milliy xavfsizlik xizmati ruxsat betgandagina jarayonlarda ishtirok etadi.

Bugungi kunda favqulodda holatlarda jurnalistik faoliyatning huquqiy asoslari xususida tadqiqot o'tkazgan olimlar quyidagi tavsiyalarni keltiradi:

1. OAV va jurnalistlarga OAV to'g'risidagi hamda terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi amaldagi milliy qonunchilikka qat'iy rioya etish tavsiya qilinadi.

2. OAV o'zining hammabop ekanini, o'sha "hamma"ning ichida terrorchilar ham borligini unutmasligi kerak. Ularning OAVdagi xabarga munosabati qanday bo'lishini oldindan bilib bo'lmaydi.

3. Terrorchilikka qarshi amaliyotlarni batafsil yoritishdan qochish kerak.

4. Jurnalistlar o'z tashabbusi bilan terrorchilardan intervyu olmasligi lozim; huquq-tartibot idoralari bilan maslahatlashmasdan ularga to'g'ridan to'g'ri efirga chiqish imkoniyatini bermaslik kerak; voqea joyidan to'g'ridan to'g'ri translyasiyani istalgan vaqtda uzib qo'yishga tayyor turishlari kerak; soha mutaxassislari bilan maslahatlashmasdan turib terrorchilarning talablarini o'z bilganicha tahlil qilmasligi va sharhlamasligi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovye-problemy-raboty-zhurnalistov-v-zone-provedeniya-kontrterroristicheskoy-operatsii>
2. Текст судебного постановления см.: <http://www.medialaw.ru/article/10/6/2/13.Бш>
3. “Война с терроризмом” и Свобода массовой информации. <https://cyberleninka.ru/article/n/voyna-s-terrorizmom-i-svoboda-massovoy-informatsii>
4. Гакаев ДД. Чеченский кризис: новая фаза развития и терроризм // Современный терроризм. Состояние и перспективы. М.: Эдиториал УРСС, 2002. С. 97—103.
5. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/favqulodda-holatlarni-boricha-yoritish-kerakmi-yoki-yuq>